


NAVOIY VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar, dastlabki ma'lumotlar)

Navoiy viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 418,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,1 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 29,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 64,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 388,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 21,7 mlrd. so'mni (2019-yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



2019-yilning mos davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish Xatirchi tumani, Zarafshon shahri, Karmana tumani, Navbahor tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Xatirchi tumaniga va aksincha eng past ko'rsatkich Navoiy shahriga to'g'ri kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 64,8 % va 29,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,1 % ulushiga to'g'ri keladi.

Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi


	Jami (mlrd. so'm)	Jamidan:			
		Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %
Navoiy viloyati	418,6	29,7	7,1	388,9	92,9
Navoiy sh.	146,1	26,6	18,2	119,5	81,8
Zarafshon sh.	36,1	0,9	2,5	35,2	97,5
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	63,8	0,2	0,3	63,6	99,7
Konimex	12,1	0,1	0,6	12,0	99,4
Qiziltepa	51,3	0,5	0,9	50,8	99,1
Navbahor	22,4	0,1	0,3	22,3	99,7
Nurota	17,2	0,1	1,0	17,1	99,0
Tomdi	3,3	0,02	0,5	3,3	99,5
Uchquduq	17,5	0,1	0,5	17,4	99,5
Xatirchi	48,8	1,1	2,2	47,7	97,8

Shuningdek, yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki chakana tovar aylanmasi tahlil qilinganida shahar va tumanlar orasida eng yuqori chakana savdo tovar aylanmasiga ega bo‘lgan hudud bu Navoiy shahri bo‘lib, uning tovar aylanmasi 146,1 mlrd. so‘m (2019-yilning mos davriga nisbatan 100,1 %) ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra 388,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 5,6 % ga o‘tdi. Viloyat miqosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,9 % ga teng kelmoqda.

Shuningdek, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar ichida Navoiy shahri, Qiziltepa tumani, Karmana tumani, Zarafshon shahri va Navbahor tumanini misol keltirishimiz mumkin.

**Chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar,
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining ulushi, %**



2020-yilning yanvar oyi tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining ulushi 92,9 % ni tashkil

etib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha shahar va tumanlar orasida Karmana (99,7%), Navbahor (99,7%), Uchquduq (99,5%), Konimex (99,4%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (18,2 %), Zarafshon shahri (2,5 %) va Xatirchi tumanida (2,2 %) kuzatilgan.

Quyidagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar oyida 416,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 99,9 foizdan 99,5 foizga kamaydi.

Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	418,6	416,5	2,1
Navoiy sh.	146,1	144,1	2,1
Zarafshon sh.	36,1	36,1	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	63,8	63,7	0,01
Konimex	12,1	12,1	-
Qiziltepa	51,3	51,3	-
Navbahor	22,4	22,4	-
Nurota	17,2	17,2	-
Tomdi	3,3	3,3	-
Uchquduq	17,5	17,5	-
Xatirchi	48,8	48,8	-


Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi ulushi



Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar oyida 2,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 foizdan 0,5 foizga ko'paydi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (34,9 foiz), Karmana tumani (15,2 foiz), Qiziltepa tumani (12,2 foiz), Xatirchi tumani (11,7 foiz), va Zarafshon shahri (8,6 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


Chakana savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi, %



Jumladan, 2020-yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2 % ni tashkil etib, 9,2 mlrd.


so'mga yetdi yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,2 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 93,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



Quyidagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar oyida 8,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 98,2 foizdan 93,5 foizga kamaydi.

Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi ulushi



Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	9,2	8,6	0,6
Navoiy sh.	3,9	3,3	0,6
Zarafshon sh.	1,4	1,4	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	1,8	1,8	0,01
Konimex	0,1	0,1	-
Qiziltepa	0,6	0,6	-
Navbahor	0,2	0,2	-
Nurota	0,2	0,2	-
Tomdi	0,1	0,1	-
Uchquduq	0,3	0,3	-
Xatirchi	0,6	0,6	-

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar oyida 0,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,8 foizdan 6,5 foizga ko'paydi.

Viloyatda yirik umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	2019-yilning mos davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar		
			Hajmi (mlrd. so'm)	2019-yil- ning mos davriga nisbatan, %	Jamiga nisbatan ulushi, %
Navoiy viloyati	9,2	100,2	0,6	61,5	6,7
Navoiy sh.	3,9	94,2	0,6	60,9	15,4
Zarafshon sh.	1,4	105,8	-	-	-

tumanlar:

Karmana	1,8	105,7	0,01	124,8	0,7
Konimex	0,1	103,9	-	-	-
Qiziltepa	0,6	104,9	-	-	-
Navbahor	0,2	104,1	-	-	-
Nurota	0,2	104,7	-	-	-
Tomdi	0,1	102,9	-	-	-
Uchquduq	0,3	101,8	-	-	-
Xatirchi	0,6	105,4	-	-	-

Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining savdo aylanmasi 0,6 mlrd. so'mni (2019-yilning mos davriga nisbatan 38,5 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining savdo aylanmasi 8,6 mlrd. so'mni (2019-yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik umumiy ovqatlanish sub'ektlarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd.so'm)	2019-yil- ning mos davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari		
			Hajmi (mlrd. so'm)	2019-yilning mos davriga nisbatan, %	Jamiga nisbatan ulushi, %
Navoiy viloyati	9,2	100,2	8,6	104,9	93,3
Navoiy sh.	3,9	94,2	3,3	104,6	84,6
Zarafshon sh.	1,4	105,8	1,4	105,8	100,0

tumanlar:

Karmana	1,8	105,7	1,8	105,6	99,3
Konimex	0,1	103,9	0,1	103,9	100,0
Qiziltepa	0,6	104,9	0,6	104,9	100,0
Navbahor	0,2	104,1	0,2	104,1	100,0
Nurota	0,2	104,7	0,2	104,7	100,0
Tomdi	0,1	102,9	0,1	102,9	100,0
Uchquduq	0,3	101,8	0,3	101,8	100,0
Xatirchi	0,6	105,4	0,6	105,4	100,0

NAVOIY VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar*)

2020-yil yanvar oyida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 94,7 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 29,1 foizga kamaydi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra 81,5 mlrd. so'mni, 2019-yilning mos davriga nisbatan 94,3 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 86,1 % ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi esa 13,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 41,5 mlrd. so'm (2019-yilning mos davriga nisbatan 55,2 %)ni tashkil etadi.

*-dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi , (mlrd.so'm)



Quyidagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahri va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %
Navoiy viloyati	94,7	81,5	86,1	13,2	13,9
Navoiy sh.	41,5	28,4	68,5	13,1	31,5
Zarafshon sh.	4,3	4,3	100,0	-	-

tumanlar:

Karmana	28,8	28,8	100,0	-	-
Konimex	0,8	0,8	100,0	-	-
Qiziltepa	5,4	5,4	100,0	-	-
Navbahor	5,9	5,9	100,0	-	-
Nurota	0,6	0,6	100,0	-	-
Tomdi	0,2	0,2	100,0	-	-
Uchquduq	1,1	1,1	100,0	-	-
Xatirchi	6,1	6,0	98,6	0,1	1,4

Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	94,7	94,6	0,1
Navoiy sh.	41,5	41,5	-
Zarafshon sh.	4,3	4,3	-


tumanlar:

Karmana	28,8	28,7	0,1
Konimex	0,8	0,8	-
Qiziltepa	5,4	5,4	-
Navbahor	5,9	5,9	-
Nurota	0,6	0,6	-
Tomdi	0,2	0,2	-
Uchquduq	1,1	1,1	-
Xatirchi	6,1	6,1	-


Quyidagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar oyida 94,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 99,93 foizdan 99,91 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar oyida 0,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,07 foizdan 0,09 foizga ko'paydi.

Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi



Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi





NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (43,8 foiz), Karmana tumani (30,4 foiz) va Xatirchi tumani (6,4 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (0871) 230-84-36**